



## BUGUNGI KUN ZAMONAVIY HARBIY XIZMATCHISI IMIDJINING PSIXOLOGIK JIHATLARI (ILMIY-AMALIY TADQIQOT)

Abdug‘aniyev Akobir Akmaljon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Jinoyatchilikka qarshi kurashish fakulteti  
“Tezkor-qidiruv faoliyat” mutaxassisligi 204-guruh kursanti

**Annotatsiya:** Ushbu kichik tadqiqotda bugungi integratsiyalashayotgan zamonda xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchilar imidjining psixologiyasi qanday bo‘lishi lozimligi, ularning xususiyatlari, ish faoliyatida va munosabatlarga kirishish jarayonida psixologik imidjning o‘rni va ahamiyati, normative-hujjatlar, shuningdek “tirik tarix” tomonidan so‘zlanuvchi harbiy xizmatchi imidji psixikasi, “imidj” mavzusini qamrab olgan xalqaro e’tirof etilgan imidjmeyker, psixolog, harbiy psixologiya mutaxassislarning fikrlari umumlashmasi, ushbu ma’lumotlar orqali berilayotgan taklif, mulohaza va xulosalar haqida atroflicha yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** Imidj, imidj pxisikasi, imidj doirasi, tadqiqotchi S.Lisovskiy, zamonaviy harbiy xizmatchi, Amir Temur, “Temur tuzuklari”, ichki va tashqi imidj, imidjning psixologik jihatlari va ahamiyati, V.Serebryannikov, psixologik tayyorgarlikning bosqichlari, Imidjmeyker D.Vragg, “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish” Konsepsiyasi, Xulosa.

Xorij psixologiyasiga oid qator ilmiy manbalarda “imidj” muammosini aniqlashga doir ko’plab bahsbop qarashlar mavjud. Biroq, bu fenomenni o’rganishga nisbatan noaniq yondashuvlar va qarama-karshi fikr-mulohazalar ham ko’zga tashlanadi. Sabab shundaki, mualliflar “imidj nima” degan savolga javob berishda, o’z idrokidan kelib chiqishi yoki shaxs sifatlarini taqqoslashi tushuniladi. Jahon adabiyotida yuqoridagilar singari bir qator izohlar keltirilgan bo’lib, lekin ularning orasida tadqiqotchi S.Lisovskiyning qarashlari maqbul sanaladi. Ya’ni imidj shaxs va omma o’rtasida vositachi obrazdir. Mening fikri ojizimcha, zamonaviy harbiy xizmatchi obrazi ikki asosiy me’zondan:

1. Noverbal muloqot kanalining idealligi (kiyim, nutq, soch, qiyofa, o’zini tutish kobiliyati, imo-ishoralar, yuz ifodalari va h.k.);
2. Yon atrofdagilar uchun uchun eng muhim bo’lgan xususiyatlar (ishonch, avtoritet, professionallik va h.k.) dan tashkil topishi kerak.

Zamonaviy harbiy xizmatchi imidji faqat tashqi ko’rinish yoki kiyinishdan iborat emas, balki uning psixologik holati, hissiy barqarorligi, maqsadga yo’naltirilganligi, kasbiy identifikatsiyasi, stressga chidamliligi va jamoa ichidagi o’z o’rnini bilishi bilan ham bevosita bog’liqdir. Harbiy xizmatchilar zamonaviy dunyoda nafaqat jangovar sharoitlarda, balki tinchlik davrida ham yuqori psixologik salohiyatga ega bo’lishlari zarur. Ularning psixologik tayyorgarligi va imidjini shakllantiruvchi omillar bugungi



kunda muhim ijtimoiy va harbiy ahamiyatga ega bo'lib, bu omillar harbiy xizmatda muvaffaqiyatga erishish, individual va jamoaviy barqarorlikni saqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bugungi kun zamonaviy harbiy xizmatchisi imidji ko'plab faktorlarni o'z ichiga oladi va bu imidj nafaqat tashqi ko'rinish, balki ichki ruhiy holat, kasbiy mahorat, axloqiy qadriyatlar va jamiyatdagi o'rni bilan ham bog'liq. Harbiy xizmatchining imidji zamonaviy ijtimoiy va siyosiy sharoitlarda juda muhim ahamiyatga ega, chunki u jamiyatda xavfsizlik, barqarorlik va tartibni ta'minlaydigan asosiy kuch sifatida qaraladi.

Keyingi yillarda shaxs qiyofasining psixologik xususiyatlari, harbiy xizmatchining shaxsiy kasbiy fazilatlarini belgilovchi psixologik omillari va harbiy xizmatchi imidjining psixologik jihatlarini o'rganish borasida ilk ilmiy tadqiqotlar xorij psixolog olimlari izlanishlarida o'z aksini topgan bo'lsada, jahon harbiy san'atiga bebafo hissa ko'pgan, buyuk sarkarda va davlat arbobi Sohibqiron Amir Temur o'z "Temur tuzuklari"da davlatni boshqaruvi va xizmatini tashkil etishda rahbar va amaldorlarning ruxiy sifatlarini e'tirof etib, ular qattiqko'l, tadbirkor, nihoyatda adolatli, lekin rahmdil, nisonparvar, halol va pok bo'lishini ko'rsatgan. Shuningdek, sarkardalarni saralash va lavozimlarga qo'yishida ularning nasl-nasabiga, aql-farosatiga, xalqparvarligiga, tinchliksevarlik, sabr-toqatlilik, adolatparvarlik, ko'tarinki ruhiy holatiga, ziyrakligiga, malakasi va odamlar bilan murosa qilish fazilatlariga alohida e'tibor bergen. Bu esa, Amir Temur o'z faoliyatida hozirgi zamon psixologiyasining ijtimoiy-psixologiya, boshqaruv psixologiyasi, etnopsixologiya, operativ faoliyat psixologiyasi va kasb psixodiagnostikasi ko'rsatadi.

Umumiy ma'noda aytganda, harbiy xizmatchining imidjini tashqi va psixologik asoslarga bo'lishimiz mumkin. Harbiy xizmatchining imidji ikki asosiy komponentdan iborat bo'ladi: tashqi va ichki. Tashqi komponentga uning kiyinishiga, harbiy formasiga, tashqi xulq-atvoriga va jismoniy holatiga oid jihatlar kiradi. Ichki komponent esa uning psixologik holati, kasbiy tayyorgarligi, hissiy barqarorligi va motivatsiyasidan tashkil topadi. Harbiy xizmatchining tashqi imidji jamoa ichida uni tanib olish va hurmat qilish uchun muhim bo'lsa, psixologik jihatlar uning samarali ishlashiga, stressni boshqarishga va jangovar sharoitlarda to'g'ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Psixologik jihatlar zamonaviy harbiy xizmatchining imidjini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki u nafaqat jangovar sharoitda, balki kundalik hayotda ham muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun zarur. Harbiy xizmatchining imidjining psixologik jihatlari harbiy xizmatchining o'z vazifalariga sodiqligi va maqsadga erishish yo'lida yuqori motivatsiyaga ega bo'lishi uning professional imidjini shakllantirganligi (motivatsiya va maqsadga intilish), zamonaviy harbiy xizmatchilar jangovar sharoitlarda yuqori darajada stressga duch kelishini inobatga olib, stressni boshqarish va shu vaziyatda samarali qarorlar qabul qilish psixologik chidamlilikka bog'liqligi (Stressga chidamlilik), harbiy xizmatchilarining o'z-o'zini baholashi va o'ziga ishonchli bo'lishi nafaqat individual muvaffaqiyatlarga, balki jamoaning muvaffaqiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi (O'z-o'zini baholash va

o'ziga ishonch), ma'lumki, harbiy xizmat jamoa ishini talab qiladi, shu sababli xizmatchilarning bir-biriga ishonishi va jamoa ruhining mustahkam bo'lishi nafaqat muvaffaqiyatli bajarilgan operatsiyalarni, balki individual psixologik holatni ham yaxshilashi (Jamoaviy ruh) singari asosiy omillarni o'z ichiga olishi mumkin.

✓ General-leytenant V.Serebryannikovning ta'kidlashicha, "Davlat tomonidan armiya xususida yaratiladigan imidj katta ijtimoiy kuchga ega. Harbiy xizmatning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi davlat imidjini ko'taradi, armiyaga nisbatan hurmat va harbiy xizmatchilarga ishonchni uyg'otadi, harbiylar va fuqarolarning jipsligini ta'minlaydi, aholining harbiy xizmatga hurmatini oshiradi". Armiya generali V. Suvorov ta'kidicha, armiyaning asosiy rechagi va ob'ekti harbiy xizmatchilar hisoblanadi. Demak, hozirgi kunda harbiy xizmatchi imidjini psixologik jihatdan o'rganish muhim hisoblanadi. Chunki, "harbiy xizmatchining ijobiy imidj bilan shakllanganligi, o'z navbatida Qurolli Kuchlar imidjini yetukligi bilan baholanadi.

✓ Zamonaviy harbiy xizmatchilarni tayyorlashda psixologik tayyorgarlikning o'rni alohida ahamiyatga ega. Psixologik tayyorgarlik harbiy xizmatchilarni nafaqat jangovar sharoitlarga, balki kundalik psixologik bosimlarga, stressga, jamoaviy faoliyatga va kommunikatsiyaga tayyorlashni o'z ichiga oladi. Psixologik adabiyotlar va xalqaro GOOGLE SCHOLAR da indekslangan maqolalarni o'rganib, zamonaviy harbiy xizmatchi psixologik tayyorgarligining asosiy bosqichlari haqida bir qator xulosaga keldim. Jumladan,

✓ Xizmatchilarning kognitiv tayyorgarligi. Xizmatchilarning tezkor va to'g'ri qarorlar qabul qilishga tayyor bo'lishi, yangi ma'lumotlarni tezda o'zlashtirish qobiliyati va vaziyatga moslashish qobiliyati, ushbu bosqichda bugungi zamonaviy integratsiyalashgan makonda harbiy xizmatchi berilayotgan va ilgari surilayotgan ma'lumotlarni eng tez usullar orqali qabul qilishida ifodalanadi.

✓ Vaziyatlar uchun hissiy tayyorgarlik. Stressli vaziyatlarda ruhiy barqarorlikni saqlash, xavfli vaziyatlarga salbiy ta'sir qilmasdan javob berish, hissiy holatlarni boshqarish. Fuqarolar bilan muloqot jarayonida turli toifadagi shaxslar bilan munosabatlarga kirishamiz. Aynan ushbu vaziyatda aggressiv holatga tushmasligi va hissiyotlarga berilmasligi lozim.

✓ Ommaviy sotsial tayyorgarlik. Jamoaviy rujni rivojlantirish, kommunikatsiya qobiliyatini oshirish va muammoli vaziyatlarda o'zaro yordamni ta'minlash. Jamoat tartibini saqlash, Tezkor-tergov guruhi va shu singari xizmatlarga jalb qilinar ekanmiz, yon atrofdagi boshqa organ xodimlariga yoki safdoshlarimizga fuqarolar bilan bo'ladigan o'zaro muloqotda ko'mak berishimiz zarurligi orqali aks ettiriladi. Xalqimiz aytganidek; "Ko'pdan quyon qochib qutulmas".

✓ Fizik va ruhiy chidamlilik. Harbiy xizmatchilarni jismoniy va ruhiy jihatdan tayyorlash, ularga kuchli psixologik yukni boshqarish va ularni stressga qarshi kurashishga o'rgatish zarurligini uqtirish.

✓ Psixologik holat va stressga qarshi kurash. Ushbu bosqich barcha bosqichlar bilan bir qatorda doimiy ravishda amalga oshirib borilishi darkor. Negaki, bu juda muhim va ahamiyatli holatlardan biridir.

Imidjmeyker D.Vragg tomonidan "shaxs imidjining ijobiy xususiyatlariga kommunikativlik, yangilik yaratish qobiliyati (kreativlik), yetuklik, siyosatdan, yangiliklardan yuksak xabardorlik, sabrlilik, amaliylik, halollik" kabilarni kiritadi. Keltirib o'tilgan yuqoridagi har bir sifatlar shaxs ijobiy imidjning psixologik komponentlari bo'lib, ular insonni buyuk ishlarga yetaklaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdag'i PF-3898-son "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish" Konsepsiyasining 15-bandida harbiy xizmatchining prinsiplaridan biri "Halollik" deb belgilangan. Bu ham harbiy xizmatchi psixologik imidjining yaqqol ko'rinishi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunning harbiy xizmatchilari ko'p hollarda jismoniy va psixologik stressga duch keladilar. Jangovar sharoitda stress darajasi maksimal bo'lishi mumkin, shuning uchun harbiy xizmatchilarning stressni boshqarish qobiliyati ularning samaradorligi uchun juda muhimdir. Psixologik stressning boshqarilishi uchun zamonaviy harbiylar turli psixologik treninglardan o'tishadi. Amaliyotda ko'p qo'llaniladigan usullar mavjud. Masalan, relaksatsiya va meditatsiya texnikalari – xizmatchilarni ruhiy bosim ostida turganda tinchlanish va salbiy hissiyotlarni boshqarish uchun o'rgatish. Vizualizatsiya va fikrlarni boshqarish – stressli vaziyatlarda xizmatchilar o'zlarini tasavvur qilish orqali ichki tinchlikni topishga harakat qiladilar.

Zamonaviy harbiy xizmatchi kasbiy faoliyatini o'ziga xos bir identifikatsiya sifatida ko'rish va unga sodiq qolish orqali o'z imidjini shakllantiradi. Harbiy xizmatchi o'z kasbini o'zgacha bir maqsadga erishish uchun tanlaganidan faxrlanishi kerak. Bu orqali u nafaqat professional yuksalish uchun, balki shaxsiy rivojlanish uchun ham motivatsiya topadi. Harbiy xizmatda o'z kasbiy identifikatsiyasini shakllantirish, o'zini jamiyatdan alohida, ulkan bir vazifani bajaruvchi sifatida his qilish, harbiy imidjning muhim qismini tashkil etadi. Shuningdek, zamonaviy harbiy xizmatchining xulq-atvori, uning etikasiga va yuksak prinsiplariga asoslangan bo'lishi kerak. Xizmatchilar o'zlari uchun belgilangan harbiy etikaga amal qilishlari va axloqiy qiymatlarga sodiq qolishlari zarur. Bu nafaqat jamoa ichidagi hurmat va ishonchni ta'minlaydi, balki tashqi dunyoda ham harbiy xizmatchilarga bo'lgan yuksak hurmatni saqlashga yordam beradi.

Zamonaviy harbiy xizmatchi imidji bir qator sifatlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy harbiy xizmatchining imidji eng avvalo uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. Bugungi harbiylar texnologiyalar va innovatsiyalar sohasida yaxshi bilimga ega bo'lishlari zarur. Harbiy xizmatchi o'zining harbiy xizmatiga doir



barcha qoidalar, jangovar taktika, zamonaviy quollar va texnikalardan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga, o'ziga xos ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni his etib, o'z vazifalarini bajarishi lozim. Harbiy xizmatchining ilmiy va texnologik bilimlarga ega bo'lishi uning kasbiy imidjini mustahkamlashda asosiy omil bo'ladi. Zamonaviy harbiy xizmatchi nafaqat jismoniy jihatdan kuchli bo'lishi, balki psixologik jihatdan ham tayyor bo'lishi kerak. Jangovar sharoitda o'zini boshqarish, stressni engish, xato qarorlar qabul qilishdan saqlanish va yuqori darajada ruhiy barqarorlikka ega bo'lish zarur. Shuningdek, harbiy xizmatchilar tezkor va samarali qarorlar qabul qilish, xavfli vaziyatlarga professional yondashish va jamoa bilan birgalikda ishlashda muhim psixologik salohiyatga ega bo'lishlari kerak. Zamonaviy harbiy xizmatchining imidji uning axloqiy qadriyatlariga, mas'uliyatiga va prinsiplariga asoslanadi. Harbiy xizmatchi yuqori axloqiy me'yorlarga rioya qilishi, halollik,adolat va hurmat kabi qadriyatlarga sodiq bo'lishi kerak. U o'zining harbiy xizmati orqali jamiyatga nafaqat jangovar faoliyatda, balki ijtimoiy hayotda ham o'rnak bo'lishi zarur. Bunday xulq-atvor jamiyatda harbiylarga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Zamonaviy harbiy xizmatchi o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlashi va doimiy ravishda o'zini rivojlantirishga intilishi kerak. O'zgaruvchan dunyoda harbiy xizmatchi yangi texnologiyalarni o'rganish, yangi strategiyalarni ishlab chiqish va o'z bilimlarini yangilashga tayyor bo'lishi muhim. Shu bilan birga, u o'zining kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishi, o'z xizmatini nafaqat kasbiy, balki shaxsiy maqsadlar nuqtai nazaridan ham qadrlashi lozim. Zamonaviy harbiy xizmatchining imidji uning jamoaviy ishlash qobiliyatiga ham bog'liq. Bugungi kunda ko'plab harbiy operatsiyalar jamoa ishini talab qiladi, shuning uchun harbiy xizmatchilar bir-biriga ishonish, o'zaro yordam ko'rsatish va birgalikda muvaffaqiyatga erishish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Jamoaviy ruh, birgalikda ishlash va hamkorlik zaruriy psixologik komponentlar bo'lib, bu harbiy xizmatning samaradorligini oshiradi. Zamonaviy harbiy xizmatchilar nafaqat jangovar vazifalarni bajaradilar, balki o'z jamiyatlarida ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishlari kerak. Harbiy xizmatchilar ijtimoiy loyihalarda, yordamsizlarga yordam berish, ta'limtarbiya ishlariga qo'shilish kabi faoliyatlarda ishtirok etishlari kerak. Bu esa ularning jamiyatdagи obro'si va imidjini oshiradi. Harbiylar jamiyatni himoya qilish bilan birga, jamiyatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishida ham o'z o'rnini topishi kerak. Zamonaviy harbiy xizmatchining tashqi ko'rinishi uning imidjining muhim qismidir. Harbiy forma uning professionalligini, intizomini va o'z vazifasiga sodiqligini aks ettiradi. Tashqi ko'rinish, toza va tartibli bo'lishi kerak, chunki bu harbiy xizmatchining kasbiy me'yorlar va tartiblarga rioya qilishini ko'rsatadi. Harbiylarning shakllari va jihozlari zamonaviy bo'lishi kerak, chunki zamonaviy quollar va texnologiyalarni egallash, harbiylar tomonidan ulardan samarali foydalanish, harbiy xizmatni aniq va sifatli bajarish imkoniyatini yaratadi. Zamonaviy harbiy xizmatchi faqat jangovar tayyorgarlik bilan cheklanmay, balki innovatsion fikrlashga, yangi texnologiyalar va taktikalar bilan ishlashga ham tayyor bo'lishi kerak. U



texnologiyalarning yangiliklariga moslashish va ulardan samarali foydalanish, o'z mahoratini yangi metodlar orqali rivojlantirishga intilishi kerak. Bu harbiy xizmatchilarni raqobatbardosh qiladi va ularning imidjini mustahkamlaydi.

Imidjning psixologik jihatlari va psixologik xususiyatlari insonning tashqi ko'rinishi va unga bo'lgan ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadi. Bu, o'z navbatida, uning ichki psixologik holati, xulq-atvori, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy kontekstdagi roli bilan bog'liq. Imidj psixologiyasi shaxsning o'zini qanday idrok etishi va boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqliknii o'rganadi. Shaxsning o'z-o'zini anglash darajasi uning imidjiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'ziga bo'lgan ishonch, o'ziga nisbatan ijobiy qarash, shaxsning jamiyatdagi o'rnini anglash – bularning barchasi uning tashqi ko'rinishini va boshqalar bilan munosabatlarini shakllantiradi. O'ziga ishonchli odam ko'pincha mustahkam imidjga ega bo'ladi va atrofdagilar tomonidan hurmat qilinadi. Imidj psixologiyasida individual va jamoaviy psixologiyaning roli katta. Shaxsning ijtimoiy guruhlarga kirishi, guruh ichidagi o'rni va uning boshqa a'zolar bilan munosabatlari uning imidjini qanday qabul qilinishiga ta'sir qiladi. Jamoaviy hissiyat va guruh psixologiyasi shaxsni ma'lum bir tarzda ko'rsatishga, boshqalar bilan o'xshashlik hissini yaratishga olib keladi. Shaxsning xulq-atvori va kommunikatsiya uslubi uning imidjini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Pozitiv, ochiq, ehtiyotkor va samimiy xulq-atvor shaxsning ijtimoiy imidjini mustahkamlaydi. Komunikatsiya orqali shaxs o'zini boshqalar bilan qanday aloqaga kiritadi, bu esa uning ijtimoiy qabul qilinishiga ta'sir qiladi. Samarali va ijobiy kommunikatsiya shaxsning psixologik jihatlarini rivojlantiradi, ularni boshqalar oldida muvaffaqiyatli tarzda namoyon qiladi. Imidj psixologiyasiga stress va shaxsning o'zini qanday ko'rsatish istagi ham ta'sir qiladi. Shaxs o'zining psixologik holatini boshqarish orqali, stressli vaziyatlarda ham o'zini boshqarishni o'rganadi. Bu, ayniqsa, jamoa yoki jamoat oldida ishtirot etganda, ijtimoiy imidjni qanday saqlashda muhim omil bo'ladi. O'zi haqida ijobiy tasavvur yarata olish va boshqalarga yaxshi taassurot qoldirish – bu shaxsning psixologik mustahkamligini ko'rsatadi.

Imidjologiya sohasidagi adabiyotlarni tahlil qilish quyidagicha xulosa chiqarishga imkon beradi:

birinchidan, odamda o'z-o'zini hurmat qilishini kuchaytirishi motivatsiyasi, bu ishda na hayotda psixologik qulaylikka erishilishiga olib keladi;

ikkinchidan, shaxs ijtimoiy ta'sirga ega bo'lish uchun o'z individual imidjidan oqilona foydalanishi va hurmatga ega bo'lish motivatsiyasi.

Imidjning psixologik jihatlaridan biri ham emotsional intellektdir. Shaxsning o'z his-tuyg'ularini boshqarish, boshqalar hissiyotlarini tushunish va ularni to'g'ri ifodalash qobiliyati uning imidjini shakllantirishda muhim o'rinn tutadi. Yuksak emotsional intellekt shaxsning atrofidagi odamlar bilan yaxshi aloqalar o'rnatishtiga yordam beradi va ijtimoiy imidjini yaxshilaydi.



Zamonaviy harbiy xizmatchining imidji faqat tashqi ko'rinish yoki jismoniy holat bilan cheklanib qolmaydi. Uning psixologik holati, o'ziga bo'lgan ishonch, stressni boshqarish qobiliyati, maqsadga yo'naltirilganligi, jamoaviy ruh va kasbiy identifikatsiya barcha birgalikda muvaffaqiyatli harbiy faoliyatni ta'minlaydi. Psixologik tayyorgarlik harbiy xizmatchilarni jangovar sharoitlarga, stressga, hissiy holatlarga va jamoaviy muhitga tayyorlashda muhim o'rinni tutadi. Harbiy xizmatchilar o'z imidjini yaratishda nafaqat tashqi omillarni, balki ichki psixologik holatni ham inobatga olishlari kerak. Bu orqali ular nafaqat o'z xizmatini muvaffaqiyatli bajaradilar, balki jamiyatda harbiy xizmatga bo'lgan ishonchni ham mustahkamlashadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kun zamonaviy harbiy xizmatchisi imidji nafaqat tashqi ko'rinish yoki jangovar mahoratdan iborat, balki uning psixologik, axloqiy va intellektual jihatlarini ham o'z ichiga oladi. Harbiy xizmatchi jamiyatda o'zining kasbiy tayyorligi, ruhiy barqarorligi, axloqiy qadriyatlari, jamoaviy ruhni qo'llab-quvvatlashi va ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish orqali o'z imidjini shakllantirishi zarur. Shuningdek, u yangi texnologiyalarni o'rganish, innovatsion fikrlashni rivojlantirish va o'z kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlash orqali zamonaviy harbiy xizmatning talablariga mos kelishi kerak. Harbiy xizmatchining yuqori imidji jamiyatda xavfsizlikni ta'minlashda, mamlakat himoyasida va global barqarorlikni saqlashda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Imidjning psixologik jihatlari shaxsning ichki holatini, xulq-atvorini va boshqalar bilan aloqalarini o'zaro uyg'unlashtiradi. Bu jihatlar shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchi, psixologik barqarorligi, ijtimoiy ko'nikmalari va emotsional intellektiga asoslanadi. Imidjni shakllantirishda psixologik xususiyatlar muhim rol o'yndaydi, chunki ular shaxsning ijtimoiy muvaffaqiyatini, jamiyatdagi o'rmini va umumiy ko'rinishini belgilaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagagi PF-3898-son "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish" Konsepsiysi.
3. Amir Temur – "Temur tuzuklari";
4. <https://natlib.uz> – O'zbekiston Milliy kutubxonasi elektron adabiyotlar va tadqiqotlar sayti va h.k.